

ADIBA VA ADABIYOTSHUNOS MULOQOTI: ZULFIYA SHE'RIYATI SHARAFIDDINOV TADQIQOTLARIDA

Foziljonova Yorqinoy Ubaydullo qizi
O'zJOKU, Filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili) yo'nalishi 2- bosqich talabasi
ORCID: 0009-0009-6401-670X
yorqinoyfoziljanova@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Ozod Sharafiddinovning Zulfiya ijodiga bag'ishlangan adabiy-tanqidiy qarashlari ilmiy tahlil etiladi. Sharafiddinovning shoirasiga yondashuvi, uning lirikasini ruhiy-estetik qatlamlar orqali talqin qilish uslubi, ayol ijodkorning ma'naviy olamiga bergan bahosi hamda Zulfiya poetik dunyosini milliy ruh bilan uyg'un holda sharhlash tamoyillari yoritiladi. Maqolada tanqidchi kuzatuvlarining poetik mezonlari, Zulfiyaning obrazlar tizimini talqin etishdagi o'ziga xos metodlari hamda ikki ijodkor o'rtasidagi ma'naviy-ijodiy yaqinlikning adabiyotshunoslikdagi ahamiyati tahliliy yondashuv asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar. Ozod Sharafiddinov, Zulfiya, adabiy-tanqidiy talqin, poetik dunyoqarash, lirik kechinmalar, milliy ruh, ayol ijodkor qiyofasi, ruhiy-estetik qatlam, badiiy tafakkur, obrazlar tizimi, adabiyotshunoslik tahlili.

DIALOGUE BETWEEN A WRITER AND A LITERARY CRITIC: ZULFIYA'S POETRY IN SHARAFIDDINOV'S RESEARCH

Annotation

This article provides a scientific analysis of Ozod Sharafiddinov's literary and critical views on Zulfiya's work. Sharafiddinov's approach to the poet's heritage, the method of interpreting her lyrics through spiritual and aesthetic layers, his assessment of the spiritual world of a female artist, and the principles of interpreting Zulfiya's poetic world in harmony with the national spirit are highlighted. The article reveals the poetic criteria of the critic's observations, Zulfiya's unique methods of interpreting the system of images, and the significance of the spiritual and creative closeness between the two artists in literary criticism based on an analytical approach.

Keywords. Ozod Sharafiddinov, Zulfiya, literary and critical interpretation, poetic worldview, lyrical experiences, national spirit, image of a female artist, spiritual and aesthetic layer, artistic thinking, system of images, literary criticism analysis.

ДИАЛОГ ПИСАТЕЛЯ И ЛИТЕРАТУРНОГО КРИТИКА: ПОЭЗИЯ ЗУЛЬФИИ В ИССЛЕДОВАНИЯХ ШАРАФИДДИНОВА

Аннотация

В данной статье представлен научный анализ литературно-критического взгляда Озода Шарафиддинова на творчество Зульфии. Выделены подход Шарафиддинова к наследию поэта, метод интерпретации её лирики через духовные и эстетические слои, его оценка духовного мира художницы, а также принципы интерпретации поэтического мира Зульфии в гармонии с национальным духом. В статье раскрываются поэтические критерии критических наблюдений, уникальные методы интерпретации системы образов Зульфией и значение духовной и творческой близости между двумя художниками в литературной критике, основанной на аналитическом подходе.

Ключевые слова: Озод Шарафиддинов, Зульфия, литературно-критическая интерпретация, поэтическое мировоззрение, лирический опыт, национальный дух, образ художницы, духовный и эстетический слой, художественное мышление, система образов, литературно-критический анализ.

Kirish. O‘zbek adabiy jarayoni taraqqiyotida ayol ijodkorlar merosining alohida qatlam sifatida shakllanishi milliy adabiyotning estetik ko‘lamini kengaytirgan muhim omillardan biridir. Bu jarayonda XX asr o‘zbek she‘riyati peshqadamlaridan bo‘lgan Zulfiya - o‘zining badiiy tafakkuri, lirizmning yuksak darajasi, ayol qalbining serqatlam kechinmalarini nihoyatda nozik va ohorli tasvirlash mahorati bilan adabiyotimizda alohida makon egallagan ijodkordir. Adibaning poetik olami inson va jamiyat, tuyg‘u va ong, sezgi va fikr uyg‘unligini o‘ziga xos badiiy tizimda mujassamlashtiradi. Shu bois Zulfiya she‘riyati nafaqat estetik hodisa, balki ayol ruhiyatining badiiy talqini, ma‘naviy-axloqiy qarashlarning she‘riy ifodasi sifatida doimo adabiyotshunoslar e‘tiborida bo‘lib kelgan.

Zulfiya ijodini atroflicha o‘rgangan, uning poetik uslubini ilmiy mezonlar asosida tahlil qilgan adabiyotshunoslar ichida Ozod Sharafiddinovning o‘rni beqiyosdir. Sharafiddinov adibaning she‘riyatini yoritishda oddiy badiiy-estetik kuzatuv bilan cheklanmay, balki uning poetik tafakkuridagi ichki qonuniyatlarni, lirik nutqning semantik teranligini, ayol lirik qahramonining ichki ovozi ochishga intiladi. Uning fikricha, Zulfiya poetikasining mazmuniy kuchi tasvirning tabiiyligida, ruhiy holatlarning o‘z-o‘zidan tug‘ilganday jaranglashida, she‘riy tilning pokligi va ma‘no qatlamlarining sodda, ammo chuqur shaklda tashkil topganidadir. Sharafiddinovning bunday talqini adibaning poetik merosiga yangicha ilmiy nigoh bilan qarash imkonini beradi. Mazkur maqolaning dolzarbligi ham aynan shu jihatdan kelib chiqadi: ya‘ni, Zulfiya she‘riyati Sharafiddinov talqinida qayta ko‘rib chiqilib, uning o‘zbek

adabiyotidagi mavqeini belgilovchi badiiy mezonlar kengroq ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, Sharafiddinovning adiba haqidagi ilmiy xulosalari - o'zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotidagi metodologik izlanishlar, poetik tahlil an'analari va estetik qarashlar bilan uyg'un holda baholanadi. Bu, o'z navbatida, Zulfiya merosining zamonaviy adabiy jarayondagi o'rnini aniqlashtirish, ayol ijodkor poetikasini ilmiy talqin qilishning yangi yo'nalishlarini ochishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, maqola o'z oldiga ikki muhim vazifani qo'yadi: birinchisi, Ozod Sharafiddinovning Zulfiya haqidagi ilmiy qarashlarini tizimli tahlil qilish; ikkinchisi esa, adiba ijodining poetik tabiatini Sharafiddinov metodologiyasi asosida chuqurroq yoritish. Ushbu yondashuv orqali Zulfiya she'riy merosining estetik qiymati, uning o'zbek adabiy tafakkuridagi tutgan o'rni va Sharafiddinov tahlil maktabining nazariy ahamiyati ilmiy asosda ochib beriladi.

O'zbek she'riyatining yuksak cho'qqilaridan birini egallagan Zulfiya obrazini yoritishda Ozod Sharafiddinov har doim adibaning ichki olamiga, ruhiy tabiati va poetik dunyoqarashiga e'tibor bilan yondashadi. Uning nazarida Zulfiya faqat she'riyat maydonidagi mohir so'z san'atkori emas, balki o'zbek ayolining ma'naviy timsolini teran ifodalagan ijodkor sifatida ulug'lanadi. Sharafiddinov adibaning shaxsiyati bilan uning poetik dunyosi o'rtasidagi uyg'unlikni asosiy mezon sifatida ilgari suradi.

Asosiy qism. Adabiyotshunosning o'zi ta'kidlagan esdaliklar orasida Zulfiya faol ijod qilgan yillar davomida o'tkazilgan ko'plab adabiy uchrashuvlar alohida ahamiyatga ega. U Yangiobod, Pop, Marg'ilon, Toshkent va Qo'qondagi ijodiy kechalarda ishtirok etib, o'sha davralarda adibaga ko'rsatilgan hurmat, mehr va e'tiqodni eslab o'tadi. Ayniqsa, Qo'qonda bo'lib o'tgan uchrashuv davomida xalqning Zulfiya shaxsiga bo'lgan tarixiy hurmati ramziy tarzda namoyon bo'lgan voqea Sharafiddinov talqinida juda katta ma'naviy qiymat kasb etadi. U yerda shoiraga qadimiy siyohdon tuhfa etilgani, bu siyohdonning Nodirabegimga tegishli bo'lganini aytib, "Siz Nodirai davronsiz. Nodira aytolmay ketgan qo'shiqlar sizning qalam-ingizdan to'kilsin", degan lutf - Zulfiya ijodiga bo'lgan adabiy va tarixiy hurmatning yorqin namunasi sifatida sharhlanadi. Sharafiddinov Zulfiya nufuzini yurt ichidagi e'tirof bilan cheklamaydi; aksincha, uning shaxsiyati dunyo adabiy-madaniy maydonida ham keng tan olinganini ta'kidlaydi. Haqiqatan ham, Zulfiya turli xalqlarning mashhur ijodkorlari, jumladan, Qaysin Quliyev, David Kugultinov, Mustay Karim kabi yirik adabiy shaxslar bilan yaqin do'st bo'lgan. Uning xalqaro miqyosdagi adabiy mavqeini belgilovchi mukofotlar - "Nilufar" xalqaro mukofoti, Jawaharlal Nehru nomidagi mukofotlar - Sharafiddinov ta'riflaganidek, adibaning adabiy salohiyatini dunyo miqyosida tan olinganini ko'rsatadi. Biroq Sharafiddinovning ta'kidlashicha, ko'plab xalqaro e'tiroflar orasida Zulfiya uchun eng qadrlı unvon - O'zbekiston xalq shoiri degan nom bo'lgan. Sharafiddinov adibadan keltirgan mashhur ibora aynan shu tuyg'uning samimiy ifodasidir: "Baxtim shulki,

o'zbekning Zulfiyasiman". Bu jumla Sharafiddinov tahlilida adibaning millatga daxldorlik tuyg'usi, ijodining xalq ruhiga bog'liqligi va shaxs sifatida o'zbek ayolining ma'naviy timsoliga aylanganini ko'rsatadi.

Sharafiddinov uchun Zulfiya shaxsi alohida e'tiborda turadi: uning nazarida adiba nafaqat she'riyatda, balki insoniy kamolotda ham poklik, sadoqat, vatanparvarlik va ayollikka xos latofatni mujassam etgan timsol sifatida yuksaladi. Adabiyotshunos Zulfiya shaxsiyati orqali o'zbek ayolining ma'naviy-ma'rifiy manzarasini talqin qiladi, shu bilan birga, shoir poetikasidagi ichki uyg'unlik, lirizm, nozik kechinmalar va o'ziga xos ruhiy dinamikaning badiiy mohiyatini ochib beradi.

Ozod Sharafiddinovning Zulfiya haqidagi mulohazalarida adabiyotshunosning ikki asosiy yo'nalishi ko'zga tashlanadi: birinchisi, adibaning shaxsiy fazilatlari va hayotiy bosib o'tgan yo'lining badiiy tabiatga ta'sirini ochish; ikkinchisi esa, uning she'riyatidagi ma'naviy-estetik asoslarni aniqlash. Sharafiddinov qayd etganidek, u Zulfiya haqida ko'p yozgan: adabiy portretlar yaratgan, yangi she'riy to'plamlariga taqriz bitgan, maqolalarida adibaning poetik olamiga oid mulohazalarini bayon qilgan. Biroq shunga qaramay, u o'z tahlilidan to'la qoniqmaganini, "bu ulkan shoiraning ijodi oldida urin ham bo'lolmaganini" samimiyat bilan e'tirof etadi. Bu e'tirof - Sharafiddinov yondashuvining halolligi va ilmiy tafakkurining bosiqligidan dalolat beradi. Sharafiddinov o'zini **"qalamim eski o'rgangan maddohlik yo'liga toyib ketayotganini sezdim"** deb ta'riflar ekan, Zulfiya shaxsining ulug'vor obrazga aylanishi faqat estetik taassurot natijasi emas, balki uning ma'naviy mustahkamligi, ruhiy pokligi va hayot sinovlaridagi matonatidan kelib chiqishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Zulfiya farishtaviy emas - u inson, va inson sifatida boshidan kechirgan iztiroblar, yo'qotishlar, **"kemtik baxt"** haqidagi nola va izhorlar adibaning she'riy olamida o'z aksini topgan. Bu samimiyluk Zulfiya lirikasining eng kuchli badiiy qudratlaridan biridir. Sharafiddinov ayniqsa adibaning umr so'ngida yaratgan **"Xotiram siniqlari"** dostonini alohida ehtirom bilan tilga oladi. Unga ko'ra, doston hayot davomida ko'rilgan sinovlar, yo'qotishlar va ruhiy iztiroblarning yuksak badiiy ifodasidir. Adabiyotshunos bu asarning ruhiy teranligini Anna Akhmatovaning mashhur "Requiem" asariga qiyoslaydi. Bu qiyosning o'ziyoq Sharafiddinovning Zulfiya poetikasini jahon adabiy jarayoni kontekstida ko'rganini, adibaning ruhiy matonatini estetik kategoriya sifatida baholaganini ko'rsatadi.

Sharafiddinovning fikricha, Zulfiyani adabiyotimizning yulduzlaridan biriga aylantirgan, uni xalq ardog'ida tutgan bosh omil - uning poetik iste'dodi emas, balki shu iste'dodning ma'naviy fazilatlar bilan uyg'unlashganidir. U o'z fikrini yanada keskinroq davom ettiradi: iste'dod - ulug' ne'mat, ammo faqat iste'dodning o'zi yetarli emas. Ijodkorning badiiy olami uning insoniy fazilatlari bilan to'ldirilgandagina salmoq kasb etadi. Aks holda, iste'dod egasi hatto eng yuksak mahoratga ega bo'lsa ham, o'z vijdoniga xiyonat qilsa, qadriyatlarni arzon bahoga sotib yuborsa yoki

hayotini ma'naviy bo'shliq ichida yo'qotsa - uning ijodi mustahkam poydevorga ega bo'lolmaydi. Zulfiya esa, Sharafiddinov talqinida, o'z she'riyatida ulug'lagan qadriyatlar - vafo, sadoqat, diyonat, insoniylikning o'zida ham namunasini ko'rsatgan ijodkor edi. Uning hayoti she'rlari bilan uyg'un, she'rlari esa hayoti bilan sobit edi. Ana shu uyg'unlik Zulfiyani nafaqat yirik shoiraga, balki XX asr o'zbek ayolining ma'naviy timsoliga aylantirdi. Sharafiddinovning umumiy xulosasiga ko'ra, ijodning haqiqiy qimmati iste'dod bilan birga insoniy fazilatlar qo'shilgandagina yuzaga keladi, bunday uyg'unlik esa bir umr davom etadigan zahmatli mehnat, o'z ustida tinimsiz ishlash va vijdon oldidagi mas'uliyat bilan erishiladigan yuksak maqomdir.

O'zbek adabiyoti XX asr sahnasida o'ziga xos badiiy dunyoqarashi, nafis lirizmi va yuksak ma'naviy-estetik qarashlari bilan ajralib turadigan ikki yorqin siymo - Ozod Sharafiddinov va Zulfiya ijodiy-madaniy tafakkurimiz tarixida uzviy bog'langan holda tilga olinadi. Sharafiddinovning Zulfiya merosiga bag'ishlab yozgan maqolalari nafaqat shoira she'riyatining poetik qatlamlarini yoritadi, balki uning ruhiy olami, ijtimoiy-estetik qarashlari va ayol ijodkor sifatida mustahkam o'rnini talqin qilishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Adabiyotshunos olim Zulfiya asarlariga murakkab tafakkur, jemalanayotgan ma'no qatlamlarini sinchkovlik bilan ajratib ko'rsatish, eng muhimi, biror satr ortida yashiringan ruhiy-milliy tovlanishlarni sharhlash mahorati bilan yondashadi.

Sharafiddinovning Zulfiya haqidagi kuzatuvlari, avvalo, uning poetik so'zga bergan bahosida yaqqol namoyon bo'ladi. U shoiraning lirikasini shunchaki emotsional kechinmalar majmui sifatida emas, balki o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasini ifodalovchi nozik badiiy hodisa deb ko'radi. Aynan mana shu yondashuv Sharafiddinov tahlillarini boshqa adabiyotshunoslar fikrlaridan ajratib turadi: u har bir she'rni o'z zamoni bilan, zamon ruhi esa shoiraning qalb ovozi bilan chambarchas bog'liq holda talqin qiladi. Zulfiyaning obrazlar dunyosi iztirob, sadoqat, kutish, vijdon, mehr va umrning murakkab burilishlari Sharafiddinov nazarida o'zbek ayolligi va milliy ruhning badiiy aksidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ozod Sharafiddinov. Tanqid – tiriklik bayoni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
2. Ozod Sharafiddinov. Iste'dod jilolari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
3. Zulfiya. Saylanma. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
4. Zulfiya. Xotiram синиқлари. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
5. Karimov, N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005.
6. Qo'shjonov, M. Adabiyot nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.